

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi rektori
E.A.Xoshimov**



«28» 06 2024-yil

**70410501 – “MOLIYA” MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGI BO‘YICHA
MUTAXASSISLIK FANLARIDAN KIRISH SINOV LARI
 (“MOLIYA” VA “MOLIYA BOZORI” FANLARI)**

DASTURI

Toshkent – 2024

Fan bo'yicha magistraturaga kirish sinovlari dasturi Bank-moliya akademiyasi Kengashining 2024-yil « 28 » 06 dagi 10 - sonli majlis bayonnomasi bilan ma'qullangan.

“TAVSIYA ETILGAN”
“Moliya” kafedrası majlisida
muhokama qilingan va tavsiya etilgan

Kafedra mudiri: J.Tursunov
(kafedra majlisining “10” - sonli bayonnomasi
“ 26 ” 06 2024-yil)

Tuzuvchilar:

Tursunov J.P. O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Moliya” kafedrası mudiri, i.f.d., dotsent;

Pulatova M.B. O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Moliya” kafedrası dotsenti, PhD.

Taqrizchilar:

Sholdarov D.A. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Budjet hisobi va
g‘aznachilik ishi” kafedrası mudiri, PhD., professor;

Abdukarimova D.R. O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Biznesni boshqarish” kafedrası mudiri, i.f.d., dotsent.

KIRISH

Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasi ko‘p jihatdan ta‘lim sohasida kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog‘liq. Kelajakda mamlakatimiz jahon innovatsion indeksiga ega 50 ta davlat qatoriga kirish istagida ekani inobatga olinsa, mazkur yo‘nalishda kadrlar tayyorlash jarayonini zamon talablari darajasida olib borish muammosi dolzarbdir. Bundan tashqari, keyingi yillarda mamlakatimizda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta‘lim mazmuni, ta‘lim tizimini tashkil etishda shakl va uslublar samaradorligini oshirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Davlat moliya tizimini isloh etish strategiyasini to‘g‘ri belgilash mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida va xalq turmush faravonligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli, 2019-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-60-sonli, 2021-yil 13-apreldagi “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6207-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5847-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-90-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “2020 – 2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VMQ-506-son qaror asosiy qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 70410401 – “Davlat moliyasi va xalqaro moliya” magistratura mutaxassisligiga tinglovchilikka o‘qishga qabul qilinayotgan nomzodlardan quyidagi bazaviy mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari talab qilinadi.

“MOLIYA” MUTAXASSISLIK FANI

1-mavzu. Moliyaning mohiyati va funksiyalari

Moliya va davlatning vujudga kelishi, uning resurslarga bo‘lgan ehtiyojining rivojlanishi. Mamlakat iqtisodiyotining ahvoli va moliya. Moliyaning moddiy mazmuni. Moliya iqtisodiy kategoriya sifatida. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. Moliyaning funksiyalari va moliya mexanizmi. Moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari. Xorijiy iqtisodchilarning moliyaga oid nazariyalari.

2-mavzu. Moliyaviy siyosat

Moliyaviy siyosatning mazmuni va tamoyillari. Moliyaviy boshqaruvning barcha tizimi davlatning moliyaviy siyosatiga asoslanishi. Moliyaviy siyosatning moliyaviy boshqaruv tizimida eng asosiy element hisoblanishi. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyati ekanligi. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari.

3-mavzu. Moliyaviy tizim

Moliyaviy tizimning sohalari va bo‘g‘inlari. Moliyaviy tizimning ta‘rifi. Davlat moliyasi, mahalliy moliya, xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi va ularning bo‘g‘inlari. Moliyaviy tizimning har bir sohasi va bo‘g‘inida shakllanuvchi pul fondlari hamda ularni daromad manbalari, ulardan foydalanishning o‘ziga xos shakllari va metodlari. Moliyaviy tizim funksiyalari. Moliyaviy tizimni iqtisodiyotni boshqarishdagi roli.

4-mavzu. Moliyani boshqarish

Moliyani boshqarishning mazmun-mohiyati, ta‘rifi, maqsadi va vazifalari. Moliyani boshqarishning boshqariladigan (obyektlar) va boshqaruvchi (subyektlar) tizimlar yagonaligidan iboratligi. Moliyani boshqarishning asosiy metodologik tamoyillari, usullari va shakllari. Moliyani boshqarish organlari va ularning vazifalari. Moliya tizimini umumiy boshqarish va uni amalga oshiruvchi organlar.

5-mavzu. Moliyaviy rejalashtirish va prognozlash

Moliyaviy rejalashtirish. Moliyaviy rejalashtirishning ta‘rifi. Moliyaviy rejalashtirishning funksiyalari va o‘ziga xos xususiyatlari. Moliyaviy rejalashtirish turlari. Moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy reja. Moliyaviy rejalashtirishning harakatlanish doirasi. Moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalari. Moliyaviy rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlari. Moliyaviy prognozlash. Moliyaviy prognozlashning huquqiy asoslari. Moliyaviy prognozlashning korxonada moliyaviy faoliyatiga ta‘siri.

6-mavzu. Moliyaviy nazorat

Moliyaviy nazorat: mazmuni, nazorat sohalari, obekti, predmeti, tizimi, vazifalari, tamoyillari. Moliyaviy nazoratning yo‘nalishlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi. Moliyaviy nazorat tizimining elementlari. Moliyaviy nazoratni tashkil etishning tamoyillari. Moliyaviy nazoratning qamrab olish sohasi. Moliyaviy nazoratning predmetini ifodalovchi moliyaviy ko‘rsatkichlar. Moliyaviy nazorat moliya funksiyalarining amalga oshirilish shakli ekanligi. Moliyaviy nazorat sohalari: davlat moliyaviy nazorati, nodavlat moliyaviy nazorati. Moliyaviy nazoratning oldida turgan eng asosiy vazifalar.

7-mavzu. Davlat budjeti

Davlat budjetining mohiyati, funksiyalari va ahamiyati. Davlat budjetining vujudga kelish sabablari va rivojlanish tendensiyalari. Davlat budjetining iqtisodiy mazmuni. Davlat budjeti – mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi. Davlat budjeti yordamida ifodalanadigan moliyaviy munosabatlar. Davlat budjeti uchun xarakterli bo‘lgan xususiyatlar. “Davlat budjeti” tushunchasiga terminologik jihatdan qo‘shiladigan boshqa tushunchalar. Davlat budjeti daromadlari. Davlat budjeti harajatlari.

8-mavzu. Davlat maqsadli jamg‘armalari

Davlat maqsadli jamg‘armalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. Davlat maqsadli jamg‘armalarining ta’rifi. Davlat maqsadli jamg‘armalarining xususiyatlari. Davlat maqsadli jamg‘armalarini tashkil etishning obektiv zarurligi va shart-sharoitlari. Davlat maqsadli jamg‘armalarining vazifalari. Davlat maqsadli jamg‘armalarini tashkil etishga ta’sir etuvchi asosiy omillar. Davlat maqsadli jamg‘armalarini tashkil etish tartibi va ularni shakllantirish metodlari.

9-mavzu. Davlat krediti

Davlat kreditining mazmun-mohiyati va funksiyalari. Davlat kreditining subyektlar o‘rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat ekanligi va unda davlatning qanday sifatlarda maydonga chiqishi. Davlat kreditida davlatning kafilga aylanishi. Davlat tomonidan kafolatning berilishi va markazlashtirilgan pul fondidagi o‘zgarishlar. Kreditning bir turi sifatida davlat krediti klassik moliyaviy kategoriyalardan, xususan, soliqlardan farq qiluvchi o‘ziga xos jihatlari.

10-mavzu. Uy xo‘jaliklari moliyasi

Moliya munosabatlarining umumiy tizimida uy xo‘jaliklari moliyasi. Uy xo‘jaligining ta’rifi. Uy xo‘jaligiga tegishli bo‘lgan xarakterli xususiyatlar. Uy

xo'jaliklari moliyasining har bir davlat moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanishi va uning moliyaviy ahamiyati.

“MOLIYA BOZORI” MUTAXASSISLIK FANI

1-mavzu. Moliyaviy bozorlar

Moliyaviy bozorlar. Zamonaviy moliyaviy bozorning eng umumiy ko'rinishlari: pul bozori, kapital bozori, fond bozori, valyuta bozori. Moliyaviy bozorda moliyaviy aktivlarning sotilishi va sotib olinishi. Moliyaviy aktivlarning asosiy turlari: qarz majburiyatlari, aksiyalar, hosilaviy qimmatli qog'ozlar. Davlat qimmat qog'ozlarini fond bozorida joylashuvi.

Foiz stavkalari va ularning turlari. Foiz stavkasining darajasiga ta'sir etuvchi omillar. Riskli aktivlarning daromadlik stavkalari va ularning o'lchash tartibi. Kapital daromadliligi. Qo'yilgan kapitalning umumiy daromadliligi. Bozor indekslar va indekslashtirish strategiyasi. Fond indekslari.

2-mavzu. Zamonaviy moliyaning mazmun-mohiyati va uni o'rganishning obektiv zarurligi

Zamonaviy moliyaning mazmun-mohiyati. Zamonaviy moliyaning o'ziga xos xususiyatlari. Moliyaviy nazariyaning konsepsiyalari va modellari. Moliyaviy nazariya tayangan doktrina. Zamonaviy moliyani o'rganishning obektiv zarurligi, sabablari va ahamiyati. Shaxsiy pul mablag'larini samarali boshqarish va moliya. Moliya va biznes olamida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish. Qiziqarli va foydali kareraga erishish va moliya. Moliya va mamlakatning iqtisodiy siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi ongli fuqarolik qarorlari qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lish. Tafakkurni kengaytirish va moliya.

3-mavzu. Zamonaviy moliyaning fundamental masalalari

Biznesning tashkiliy shakllari va ularning moliyaviy qarorlar qabul qilishga ta'siri. Mulkka egalik huquqi (mulk)ni boshqaruvdan ajratishning moliyaviy sabablari. Korporativ menejmentning asosiy vazifasi va uning moliyaviy jihatlari. Bozor intizomi: kompaniyalarning “yutib yuborilishi” va uning moliyaviy oqibatlari. Korporatsiyada moliyachining tutgan o'rni.

4-mavzu. Moliyaviy qarorlar

Moliyaviy qaror. Uning o'ziga xos xususiyatlari. Uy xo'jaliklari qabul qiladigan moliyaviy qarorlar va ularning asosiy tiplari: pul mablag'larini iste'mol qilish va jamg'arish to'g'risidagi qarorlar, investitsion qarorlar, moliyalashtirish xususidagi qarorlar, riskiy boshqaruv haqidagi qarorlar. Insoniy ehtiyojlar va moliya nazariyasiga muvofiq ularning moliyaviy qarorlar qabul qilishda aks etishi. Firmalar qabul

qiladigan moliyaviy qarorlar. Firmalar qabul qiladigan moliyaviy qarorlarga ta'sir qiluvchi asosiy omillar. Jismoniy va moliyaviy kapital.

5-mavzu. Moliyaviy oqimlar

Iqtisodiy resurslarning vaqt bo'ylab, davlat chegarasi orqali va iqtisodiyotning bir tarmog'idan boshqasiga o'tish usulini ta'minlash. Riskni boshqarish usullarini ta'minlash. Savdoga imkon yaratadigan hisob-kitobni amalga oshirish va kliring usullarini ta'minlash. Moliyaviy resurslarni birlashtirish va turli korxonalarda egalikning bo'linishi mexanizmi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qaror qabul qilishning markazlashtirilmagan jarayonini muvofiqlashtirish imkonini beradigan narx-navo axboroti. Stimullashtirishning psixologik muammolarini hal qilish.

6-mavzu. Moliyaviy innovatsiyalar

Moliyaviy innovatsiyalar va bozorning "ko'rinmas qo'li". Moliyaviy innovatsiyalarning tadbirkorlar va firmalarning harakatlari natijasida yuzaga kelishi. Innovatsiyalar va texnologiyalarning rivojlanishi.

7-mavzu. Moliyaviy vositachilar

Moliyaviy vositachilarning umumiy tarkibi. Banklar. Ularning asosiy funksiyalari. Banklarning turlari. Universal banklar va tijorat banklari. Ixtisoslashtirilgan banklar. Depozit-jamg'arma tashkilotlari. Jamg'arma banklari, ssuda-jamg'arma assotsiatsiyalari va kredit uyushmalari. Sug'urta kompaniyalari. Ularning asosiy funksiyalari. Sug'urta polislarini. Sug'urta turlari. Sug'urta mukofotlari. Pensiya fondlari. Pensiyaning rejalashtirish dasturlari. Pensiya dasturlarining turlari. O'zaro fondlar. Ularning o'ziga xos xususiyatlari. Investitsion banklar va ularning asosiy vazifalari. Anderrayting va qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lish. Venchur kompaniyalarga kapital tikadigan firmalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Axborot xizmatlarini taqdim etuvchi firmalar.

8-mavzu. Moliyaviy tashkilotlar va moliyaviy infratuzilma

Davlat moliyaviy muassasalari. Nodavlat moliyaviy muassasalar. Markaziy banklar va ularning asosiy funksiyalari. Ixtisoslashgan moliyaviy vositachilar. Ularning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalari. Mintaqaviy va butun dunyoviy moliyaviy tashkilotlar. Turli davlat hukumatlari moliyaviy siyosatini muvofiqlashtirishning zarurligi. Xalqaro hisob-kitoblar banki. Buxgalteriya hisobi va sud ishlarini hal etish jarayonlari. Moliyaviy instrumentlar savdosiga ko'maklashuvchi hisob-kliring tashkilotlar. Moliyaviy tizim qatnashchilarining o'zaro munosabatlarini nazorat qiluvchi idoralar.

9-mavzu. Moliyaviy hisobot: mazmuni, funksiyalari va uning turlari

Moliyaviy hisobotning mazmuni. Moliyaviy hisobot funksiyalari. Moliyaviy hisobot turlari: balans, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, pul oqimlari to'g'risida hisobot. Moliyaviy hisobotga tushuntirish. Bozor va balans bahosi o'rtasidagi farq. Aksiyalarning bozor qiymatining va ularning balans qiymatiga mos kelmasligining asosiy sabablari. Aksiyadorlik kapitali daromadlilik normasi yoki koeffitsienti.

10-mavzu. Moliyaviy hisobotlarda moliyaviy koeffitsientlardan foydalanish

Moliyaviy koeffitsientlar. Moliyaviy koeffitsientlar o'rtasidagi o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar. Rentabellik ko'rsatkichlari. Aktivlarning aylanuvchanligi ko'rsatkichlari. O'z mablag'i yoki qarz olingan mablag'lardan moliyalashtirish yoki moliyaviy "dastak". Moliyaviy leverij ko'rsatkichlari. Likvidlik ko'rsatkichlari. Bozor qiymati ko'rsatkichlari. Moliyaviy koeffitsientlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar. Moliyaviy dastak samarasi. Foiz stavkasi va faoliyat siklining ROEga ta'siri.

11-mavzu. Pulning davriy qiymati va pul oqimlarining diskontli tahlili

Murakkab foizlar. Bo'lajak qiymatni hisoblash. Moliyaviy kalkulyator. Turli foiz stavkalari bo'yicha reinvestitsiya qilish. Qarzni uzish. Pulning keltirilgan qiymati va diskontlash. Pul oqimlarini diskontlash asosida investitsiyalash. Ko'p sonli pul oqimlari. Bir necha pul oqimlarining bo'lajak va keltirilgan qiymati. Annuitet va uning bo'lajak qiymati. Annuitetning keltirilgan qiymati.

12-mavzu. Inson hayotida moliyaviy rejalashtirish

Umrbod sug'urta shartnomasi. Sof keltirilgan qiymatni hisoblash. Inflyatsiya va pul oqimlarini diskontlash asosida tahlil qilish. Inflatsiya va bo'lajak qiymat. Inflatsiya va investitsion qarorlar. Soliqlar va investitsion qarorlar. Keltirgan daromadi soliqqa tortilmaydigan qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish.

13-mavzu. Moliyaviy risklar

Riskning mazmun-mohiyati. Riskni boshqarish. Riskka moyillik. Risk va moliyaviy qarorlar. Uy xo'jaliklari duch keladigan risklarning turlari. Korxonalar duch keladigan risklarning turlari. Riskni boshqarishda hukumatning roli. Riskni boshqarish jarayoni: riskni aniqlash; riskni baholash; riskni boshqarish usulini tanlash; tanlangan usullarni amalga oshirish; natijalarni baholash. Riskni "o'tkazish" variantlari: xedjirlash; sug'urtalash; diversifikatsiya.

14-mavzu. Investitsion portfelni shakllantirish

Investitsiya portfeli. Investitsiya portfelini shakllantirish. Riskli investitsiyalar. Investitsiya portfelini shakllantirishga yondashuvlar. Investorning moliyaviy

imkoniyatlari, kutilayotgan daromad va tavakkalchiliklarning maqbul darajasi. Foydalilik funksiyasi va loqaydlik egri chiziqlari. Riskli aktivlar investitsiyasini tanlash. Samarali investitsiya tizimidan optimal investitsiya tanlash. Investitsiya tanlashda muqobil risk ko'rsatkichi.

II. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 1992-yil (O'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. 2017-yil 7-fevral.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni. 2021 yil 13 iyul.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5495 sonli Farmoni. 2018 yil 1 avgust.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish to'g'risida"gi PF-6167 sonli Farmoni. 2021 yil 11 fevral.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. 2017 yil 2 sentabr.

7. Sh.Mirziyoev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr

8. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.

9. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.

10. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.

11. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: : "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

12. Xasanov B.A. va b. Moliya va soliqlar. Darslik. T.: Lesson Press. 2023.-564 b.

13. Malikov T., Olimjonov O. Moliya. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. - 920 b.

14. Malikov T.S. Moliya: nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Nur Durdonalari”, 2021. – 296 s.
15. Malikov T. Moliya: amaliy jihatlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Nihol-print”, 2022. -428 b.
16. Axunova E. Финансы. Учебник. Часть I. – Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 320 s.
17. Aleshin V.A., Zotova A.I. Финансы. - Rostov n/ D: Feniks, 2009 g. – 346 str.
18. Ataniyazov J.X., Alimardonov E.D. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. –T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” – 2014. 432 b.
19. Боди З., Мертон Р.К. Финансы Пер. с англ. : Уч. Пос. – М.: Изд. дом “Вильямс ” 2009. – 320 с.
20. Бочаров В. В., Леонтьев В. Е, Радковская Н. П. Финансы: учебник. - СПб.: Питер, 2009. – 400 с.
21. Vahobov A., Malikov T. “Moliya: umumnazariy masalalar” o‘quv qo‘llanma Toshkent, “IQTISOD-MOLIYA”, 2008 y. 316 b.
22. Davydova L.V., Fedorova O.A., Korshunova G.V. Finansy v sxemax. 2008 g.
23. Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya chizmalarida. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009 y, 660 b.
24. Malikov T.S. “Moliya: xujalik yurituvchi sub’ektlar moliyasi” O‘kuv kullanma /- T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009. -288 b.
25. Malikov T., Haydarov N., “Budjet: tizimi, tuzulmasi, jarayoni” o‘quv qo‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA”, 2008 y, 84 b.
26. Нешиной А.С. Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник. – М.: “Дашков и К ”, 2010 г. – 592 стр.
27. Романовского М.В., Врублевской О.Б., Сабанти Б.М. Финансы. – М.: Изд. “Высшее образование ”, 2010 г. – 462 стр.
28. Ataniyazov J.X. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. –T.: «Iqtisod-molya», 2020. – 612 b.
29. Эскиндаров М., Звонова Е. Международные валютные отношения. Учебник. – М.: КноРус, 2020. – 542 с.
30. Frederic S. Mishkin., Stanley G. Eakins. Financial markets and institutions. Pearson. – 9th ed. 2018. – 808 p.
31. Paul R. Krugman. Maurice Obstfeld, Marc Melitz. International economics: theory & policy/Paul R. Krugman, Maurice Obstfeld, Marc J. Melitz. – 9th ed. 2018. – 782 p.
32. Поляка Г.Б. Финансы. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 703 с.
33. Лапушта М. Г., Мазурина Т. Ю. Финансы предприятий: учебное пособие. – М.: Издательство «Альфа-Пресс», 2009. – 640 с.
34. Ковалева В.В. «Финансы», - М.: Проспект, 2008. – 640 с.
35. Internet saytlari:
www.mf.uz
www.openinfo.uz
www.cer.uz

www.publicfinance.uz

www.lex.uz